

O‘ZBEK TILIDA BA’ZI OSMON JISMLARINING O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI

Qurbonova Gavhar Xurramovna
TerDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola o‘zbek tili badiiy matnlarida ba’zi osmon jismlarining perifrazalarda ifodalanishini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, perifrazalarning huddi iboralar kabi nutqning tasviriyligini oshiruvchi til birligi ekanligi, bu birliklarning esa osmon yoritgichlarini nomlashda qay darajada o‘rin tutganligini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: perifraza, metafora, o‘xshatish, hosila nominatsiya, sof perifrazalar, kontekstual perifrazalar, o‘zga tilli perifrazalar.

Biz dunyo haqidagi bilimlarni o‘rganar ekanmiz osmon yoritgichlarining tasviriyl turkumlanishi samoviy jismlar nomlari ierarxiyasida o‘z aksini topadi. Osmon jismlari bir qator tilshunos va adabiyotshunoslarimiz tomonidan atroflicha o‘rganilgan, lekin ularni ifodalashda tasviriyl vositalarning o‘rni haqida o‘zbek tilshunosligida tadqiqodlar kam olib borilgan. Osmon jismlarining aynan o‘z nomi bilan emas, balki o‘zlashma so‘zlar va tasviriyl vositalar orqali berilishi orqali matnning tasrchanligi oshganligiga guvoh bo‘lamiz.

Quyida osmon jismlarining o‘zlashma so‘zlarda ifodalanishiga to‘xtalamiz.

Perifrazalarning hosil bo‘lishida tojik tilidan o‘zbek tili lug‘at tarkibiga kirib kelgan so‘zlar ularning shakllanishiga turtki bo‘ldi. Fors-tojik tilida oy mah so‘zi bilan ifodalanadi, mahitobon esa nurli, yorqin oy ma’nosini beradi. Ayrim manbalarda bu so‘z moh deyilib ketiladi. Moh – fors-tojik tilida baliq demakdir. Ikki o‘zlashma leksemani adashtirib yubormaslik kerak.

Quyida berilayotgan perifrazalarda quyosh bilan bog‘liq tushunchalari fodalangan:

Ammo bag‘oyat afifa va mastura erdi. **Oftobi olamtob** andin rashk qilur erdi. (Gulxaniy. Zarbulmasal)

Oftobi olamtob– fors-tojik tilidan olingan bo‘lib “olamni yorituvchi quyosh”.ma’nosini beradi.

Yana bir o‘rinda;

Bum zulmoniy o‘ldi pinxoniy,

Ko‘r etar oni **mehri nuroniy**.

Mehri nuroniy – forschadan nurli quyosh deb tarjima qilinadi va bu o‘rinda ham o‘zbek tiliga fors tilining ta’siri sezilib turadi.

Yulduz leksemasi ham bir necha o‘rinlarda kavkab, anjum, axtar kabi fors, arab tilidan o‘zlashgan yakka so‘zlar bilan ifodalangan:

Furqatiy qoshish-u ko‘zingdin fitnalar ko‘rdi, bali!

Sho‘rish o‘lmoq rasmdur oy tug‘sa **axtar** ustida. (Furqat. G‘azal.)

Qadimdan osmon jismlari inson bilan, uning hayot turmushi bilan yaqinlikda bo‘lgani uchun o‘zbek tilida oy, quyosh, yulduz leksemalarini anglatuvchi perifrazalar qon-qarindoshlik, yaqinlik, tasvirlari bilan ifodalangan va insonlarning osmon jismlariga bo‘lgan munosabatlarini bildirgan:

Go‘zal yulduz, **yerimizning eng qadrli tuvg‘oni!** (Fitrat. Mirrix yulduziga)

Mirrix, Mars – Quyosh sistemasiga kiruvchi to‘qqizta katta sayyoralardan biri. Bu o‘rinda shoir yulduzga yerning qadrli tug‘ishgani, ya‘ni qarindoshi sifatida qaramoqda. Bu yerdagi kontekstual perifrazaning sintaktik tizilishi sifatlovchi + sifatlanmish tartibida kelib so‘z birikmasi bilan ifodalanmoqda.

Quyidagi misolda yulduzlar shoirning farzandlariga aylanganini va farzand ota-ona uchun doim ko‘ngli toza bola misolida gavdalanishini o‘xshatishlarda ko‘rishimiz mumkin:

Yulduzlar, yulduzlar, siz mening uchun

Soflik va mas‘umlik bo‘lib yondingiz.

Borim shudir, deya jovdirab sekin

Oq ko‘ngil farzandim bo‘lib qoldingiz. (A.Oripov. Yuzma-yuz)

Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, nafaqat yulduz leksemasi, balki oy, quyosh va boshqa osmon jismlarini bildiruvchi leksemalarning ham insonga yaqin olinib tasviriy vositalar bilan berilishi matnlarda ko‘zga tashlanadi:

Enagamiz tunda oy-u, kunduzi quyosh. (A.Oripov. O‘ylarim)

Tunni yoritguvchi oy bo‘lsa, kunduzlari quyosh mehridan bahramand bo‘lamiz va yuqoridagi misolda oy va quyosh enaga kabi bizga doim e‘tiborda ekanligi tasvirlangan.

Yana biro‘rinda:

Ko‘kda quyosh kezar, u **munis ona**,

Milliard yulduzlarning shamsi tal‘ati. (A.Oripov. Yolg‘izlik)

Yana:

To kechgacha qilib mehnat,

Qizaradi sariq yuzi.

Yaxshiligini minnat etmas,

U **osmonning oltin qizi**. (R.Turopov. Gulhan. 2018.7-son)

Yana birmisol:

Quyosh- **yoz bilan o‘rtoq**,

Ajralgisi kelmaydi.(Gulhan. 2018.7-son)

Osmon jismlarini tasvirlashda turlicha yondashuvlar farqlanadi:

Osmon jismlariga salbiy yondashuvlar ham kuzatiladiki, bu salbiylikning metaforalar orqali ifodalanishi fikrimizga yaqqol misol bo‘ladi:

Ko‘rdim-ku, manglaying ter bilan qotib,

Berahm otashga berganingni tob. (A.Oripov. Saraton)

Yozning issiq saratonida quyosh berahm otash sifatida ifodalangan.

Ayni misolimiz bilan yuqoridagi munis ona, enagamiz kabi ifodalar bir-biriga ziddiyatda ifodalanmoqda.

Quyidagi yana bir misol ham aynan salbiy ma’no tashimoqda:

Qaynoq bir to‘zon ichra gurkirar endi osmon,

Bosh ustingda o‘t purkar **samoning ajdahosi**. (A.Oripov. Qarshi qo‘shig‘i)

Ba’zi yunon afsonalarida ajdarhoning og‘zidan o‘t purkashi tasvirlanadi. Quyosh nurlarining o‘t, olovga o‘xshashligi o‘rtasida ham mazmuniy, ham tashqi o‘xshashlik ifodalanganligi metaforik tarzda ifodalangan.

Samoviy jismlar ba’zi o‘rinlarda turli predmetlar orqali o‘xshashlik jihatidan ham tasvirlanadi:

Osmon lov-lov yonar oftob qo‘ridan,

Ufqda sarobdan **otashin baldoq**. (A.Oripov “Saraton”)

Bu o‘rinda keltirilgan metaforik ifoda ham issiqlik, ham isirg‘aga o‘xshashlikka asoslangan.

Metafora xalq og‘zaki poetik ijodi shakllarida ham keng qo‘llaniladi, xususan, topishmoq va maqollar tasirchanligini ta’minlaydi:

Tepamda ko‘k dasturxon,

Dasturxonda **shirmoy non**.

Shirmoy non bir donadir,

Sindirilmas hech qachon. (J: Osmon va oy)

Xulosa qilib aytganda, ayrim osmon jismlarini ifodalashda metafora, o‘xshatish va perifrazalarning o‘rni o‘zbek tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi. Osmon jismlarining perifrazalarda ifodalanishi aksariyat hollarda metafora usulida ma’no ko‘chishi orqali (yuqoridagi bir nechta misollar) hosil bo‘ladi: osmon jismlari – inson, osmon jismlari-tabiati, osmon jismlari-predmetlar, osmon jismlari-hissiyot.

Osmon jismlarining boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlar orqali ham ifodalanishi va bu so‘zlarning ayrimlari izofali birikmalar bo‘lsa, ayrimlari bir so‘zli leksemalar ekanligi ham yuqoridagi misollarimiz orqali ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normurodov R. O‘zbek tilida ikkilamchi nominatsiya. – T.: Fan, 2010.
2. Yunusova Z. Alisher Navoiy asarlari tilida yulduz leksemasining giponimik va sinonimik qurshovlari. – T.: 2002.

3. Eshonqulov H.P. Alisher Navoiy she'riyatida samoviy timsollar (“Badoyiul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” devonlari asosida). – Samarqand – 1999.
4. Umirov I.E. O‘zbek tili parafrazalari. F.f.n. diss. Avtoreferat. – T.: 1996.
5. Kurbanova Gavhar. (2023). NOMINATIVE PROPERTIES OF ASTRONYMS. International Journal of Advance Scientific Research, 3(09), 197–202.
6. G. X. Qurbonova. (2022). EXPRESSION OF ASTRONYMS IN UZBEKI THROUGH ZOOMORPHEMS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 7, 66–70.
7. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. Proceedings of International Educators Conference, 2(1), 648–653.
8. Sayfullayev Najibullo, Mirzayeva Avazxol. (2024). EXPLANATION OF ARABIC WORDS IN "NASAYIM UL-MUHABBAT" BY ALISHER NAVOI. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(02).
9. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdukarimovna. (2023). Ta’lim jarayonida o‘z - o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to‘plash tizimi. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2), 154–162.